

## Urgut Tuman Aholisining O‘Zgarish Dinamikasi

**Urokov Firdavs Ortikniyozovich**

*Samarqand Iqtisodiyot Va Sevis Instituti Assistenti*

**Jabborov Ulugbek Gabborovich**

*Samarqand Iqtisodiyot Va Sevis Instituti Iqtisodiyot Fakulteti Talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand viloyatida joylashgan Urgut tumani aholisining statiatikasi xususida so‘z boradi. Shunngde, aholining tabiiy harakatlari, o‘zgarish sur’atlari va boshqa bir qancha ko‘rsatkichlar qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** aholi, aholi ko‘payishi, demografik ko‘rsatkichlar, hududiy maydonlar, tug‘ilish va o‘lim soni, migratsiya, immigratsiya, tabiiy o‘sish.

### Kirish.

**Urgut tumani<sup>1</sup>** – O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Aholisi 2021-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra 528,900 kishi.[1] Samarqand viloyatining janubiy-sharqiy qismida joylashgan. Shimoliy sharqda Zarafshon daryosi orqali Bulung‘ur tumani, shimolda Toyloq, shimoliy g‘arbda va g‘arbda Samarqand tumanlari, sharqda Tojikiston Respublikasi, janubda Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 1120,3 km<sup>2</sup>. Aholisi 564 ming kishi (2022). Tumanda bitta shahar (Urgut), 14 ta qishloq fuqarolari yig‘ini (Baxrin, Beshbulloq, Jartepa, Ilonli, Ispanza, Mirzaqishloq, Beshkapa 1 va Beshkapa 2, Sanchiqu, Uramas, Yangiariq, Qoratepa, G‘o‘s, Buloqboshi) bor.

Markazi – Urgut shahri<sup>2</sup>. Tashkil topgan vaqt – 1964-yil 31-dekabr. Umumiy maydoni – 1,12 ming km<sup>2</sup>. Shahar tipidagi posyolkalar (shaharchalar) soni – 7 ta. Mahalla fuqarolari yig‘inlari soni – 120 ta, shundan shahar mahallalari soni – 40 ta, qishloq fuqarolari yig‘inlari soni – 12 ta. Qishloq aholi punktlari – 115 ta. 2024-yil 1-yanvar holatidagi doimiy aholi soni – 559226 kishi (erkaklar – 284101, ayollar – 275125). Samarqand shahrigacha bo‘lgan masofa – 35 km. Chegaradosh respublika- Tojikiston, viloyat – Qashqadaryo, tumanlar – Tayloq, Samarqand, Bulung‘ur.

**Urgut** – Samarqand viloyatidagi shahar va qishloq tumanı nomi. Toponim tarixiy manbalarda **Arkut** shaklida uchraydi. S.Qoraevning bergan ma’lumotiga qaraganda, O‘zbekistonning boshqa viloyatlarida ham **Urgut** nomli joylar uchraydi. Masalan, Farg‘ona vodiysida, Xorazmda. Shunday ekan, toponimni **Arg‘u** qabilasi nomi bilan bog‘lash mumkin. Mahmud Koshg‘ariy **arg‘u** – turk qabilasi nomi deb yozadi .

<sup>1</sup>[https://uz.wikipedia.org/wiki/Urgut\\_tumani](https://uz.wikipedia.org/wiki/Urgut_tumani)

<sup>2</sup> [https://samarkand.uz/towns\\_districts/urgut](https://samarkand.uz/towns_districts/urgut)



### 1-rasm

2019 - yil dekabr oyi holatiga ko‘ra, Urgut tumani aholi soni 494.6 ming nafarni tashkil etmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, shundan 0.286 ming nafari ko’chib kelgan va 0.979 ming nafari ko’chib ketganini ko’rishimiz mumkin;

2023- yilga kelib Urgut tumani doimiy aholisi soni 559.2 ming kishiga yoki 11.5 foizga oshgan. Tug‘ilish va o‘lim darajasi 2019 yilga nisbatan qariyb 8.4 foizga o‘sgan. O‘sanda Urgut shahari aholisi soni 208.2 ming kishini (jami Urgut aholi sonidagi ulushi 42.1 %), qishloq aholisi soni esa 286.4 ming kishi (57.9%)ni tashkil qilgan. Urgut tumani aholisining so’nggi 5 yillik ma’lumotini tahlil qiladigan bo‘lsak, har yili yildan-yilga aholi soni oshib borganligini ko’rishimiz mumkin;

Hozirgi kunda urgut tumani aholisi soni 559.2 ming nafardan ortiq bo‘lib (2023-yil dekabr oyi holatiga ko‘ra), urgut shahari aholisi 234.6 ming kishini tashkil etadi. Samarqand viloyati aholi sonining 13%ni urgut tumani aholisi tashkil etadi.

So’nggi yillarda Urgut tumanida ichki migratsiya harakatlarining oshishi kuzatilmogda. Buning asosiy sabablaridan biri, Urgut tumani erkin iqtisodiy zonani tashkil qilinganligi va ishlab chiqarishning keskin oshganligi, invistitsiyalar soni ko’payganligi sabab bo‘lmoqda.

### **Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi**

#### *1- yanvar holatiga, ming kishi*

	<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>	<b>O’sish sur’ati, % da</b>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>4031,3</b>	<b>4118,4</b>	<b>102,2</b>
Samarqand sh.	561,8	573,2	102,0
Kattaqo‘rg‘on sh.	91,9	93,6	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	165,1	169,1	102,4
Bulung‘ur	193,4	197,5	102,1
Jomboy	180,4	184,8	102,4
Ishtixon	264,4	270,1	102,2
Kattaqo‘rg‘on	282,3	287,9	102,0
Qo‘shrabot	136,4	139,1	102,0
Narpay	219,1	223,4	102,0
Payariq	260,3	266,9	102,5
Pastdarg‘om	367,4	374,9	102,0
Paxtachi	147,9	150,0	101,4

Samarqand	261,5	267,2	102,2
Nurobod	156,3	159,3	101,9
Urgut	532,6	545,7	102,5
Toyloq	210,5	215,7	102,5

Samarqand viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **245,6** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,2** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **240,4** kishi).

Shahar va tumanlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Kattaqo’rg’on shahrida **9360,0** kishi, Samarqand shahrida **4776,7** kishi, Toyloq tumanida **770,4** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Nurobod tumani **32,8** kishi, Qo‘shabot tumani **64,4** kishi, Paxtachi tumani **108,7** kishini tashkil etgan.

2022- yil yanvar- dekabr oylarida **111,6** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **27,4** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilda **27,7** promilleni tashkil etgan)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **19,3** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etgan (2021- yilning yanvar- dekabr oylarida **4,7** promille bo‘lgan)

2022 yilning yanvar- dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **54,6** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **6,5** % i – o‘sintalardan, **9,4** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **5,5** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,6** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **1,0** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **18,4** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

2022- yil yanvar- dekabr oylarida viloyat bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 9 071 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 14 276 kishini, migratsiya saldosи minus 5 205 kishini tashkil etdi. (2021- yil yanvar- dekabr oylaridamius 8 045 kishini tashkil etgan).

#### Foydalilanigan manbalar:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Urgut\\_tumani](https://uz.wikipedia.org/wiki/Urgut_tumani);
2. [https://samarkand.uz/towns\\_districts/urgut](https://samarkand.uz/towns_districts/urgut);
3. [www.stat.uz](http://www.stat.uz);
4. [www.samstat.uz](http://www.samstat.uz);
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).